


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**O'quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro'yxatga olindi**
№ 145033
2014-yil 20 iyun

**Rektorning ___-sonli
buyrug'i bilan
TASDIQLANGAN
(2014-yil 21-iyun)**



**O'QITUVCHI NUTQI
MADANIYATI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 140000 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Ta'lim yo'nalishi: 5140900 – Bakalavriat kasbiy ta'limi yo'nalishi uchun

Toshkent – 2014


Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2002-yil 28-fevralda tasdiqlangan "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasidagi barcha magistratura yonalishlari Davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori, professor N. Husanov

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent O'.Lafasov
filologiya fanlari nomzodi A.Saparov

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014-yil dagi 20-maydagi 20-sonli majlisida muhokama etilib, fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri



N.Husanov

Fanning ishchi o'quv dasturi Moliyaviy menejment fakulteti Kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan (2014-yil 5-iyundagi 10-sonli bayonnama)

Fakultet dekani



O.Astanakulov

Kelishildi:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



A.Karimov

Kirish

Nutq madaniyati insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida muhim rol o'ynaydi. Nutq madaniyati tildan maqsadga muvofiq foydalangan holda to'g'ri va chiroyli nutq tuzishni o'rgatadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida asosiy vosita o'qituvchining nutqi hisoblanadi. Ayniqsa, mutaxassislik sohalari bo'yicha o'qituvchi uchun nutq madaniyatini mukammal bilish talab etiladi.

Ushbu dastur madaniy nutq va unga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining nutq madaniyati uchun zarur bo'lgan kommunikativ sifatlar haqida ma'lumot beradi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga madaniy nutq va unga qo'yiladigan talablar haqida to'la ma'lumot berish; nutqning asosiy sifatleri (to'g'riligi, aniqligi, tozaligi, mantiqiyligi, ta'sirchanligi, maqsadga muvofiqligi) to'g'risida ma'lumot berish; olingan nazariy bilimlar asosida adabiy nutq malakalarini shakllantirish

Fanning vazifasi talabalarning tom ma'nodagi adabiy nutq malakalarini hosil qilishlariga ko'maklashishdan iborat. Iqtisodiy bilimga ega bo'lgan mutaxassis yoki shu soha bo'yicha o'qituvchi qo'l ostidagi kishilar va talabalar qalbiga yo'l topa olishi, ularni ijodiy va samarali mehnatga rag'batlantira olish kerak. O'qituvchining nutq madaniyati hamda o'quvchilar bilan muloqotga kirisha olish malakalarini shakllantirish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“O'qituvchi nutqi madaniyati” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- o'qituvchi faoliyatida nutq madaniyatining tutgan o'rni hamda o'quvchilar bilan muloqotga kirisha olish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

- adabiy til norma (me'yor)lari; madaniy nutqqa qo'yiladigan talablarni bilishi; nutq uslublari va nutq madaniyati masalalari, madaniy nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi;

o'z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;

- o'qituvchi o'z soha terminlarini bilishi va nutqiy jarayonlarda ulardan to'g'ri foydalana olishi hamda adabiy tilda sof gaplasha olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“O'qituvchi nutqi madaniyati” fani ixtisoslik fani hisoblanib, barcha bakalavr yo'nalishlarining 5-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi umumkasbiy blok fanlarida, jumladan, “Pedagogika”, “Psixologiya”, “Mantiq”, “Madaniyatshunoslik”, “Etika” va “Estetika” fanlarida

o`rganiladigan muammolar borasida yetarli bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishni talab etadi.

Fanning ta'limdagi o`rni

“O`qituvchi nutq madaniyati” fani talabalarni bo`lajak o`qituvchilikka tayyorlash jarayonida ularning madaniy nutq malakalarini shakllantirishga va rivojlantirishga yordam beradi. Chunki nutq madaniyatini mukammal egallash jamiyatimizdagi har bir soha egasi uchun zaruriy qurol sanaladi. Bo`lg`usi o`qituvchilarda nutqiy malakani oshirish va shakllantirish ularning jamiyatda munosib o`rin egallashlarida, tegishli soha yoki ijtimoiy hayotning biror jabhasida etuk kadr bo`lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o`qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining nutq madaniyati fanini o`zlashtirishlari uchun o`qitishning ilg`or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o`zlashtirishda darslik, o`quv va uslubiy qo`llanmalar, amaliy mashg`ulot ishlanmalari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi.

Mazkur fanni o`qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo`llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan, ma`ruza va seminar darslarida “Klaster”, “Aqliy hujum”, “So`z ustasi”, “Munozara” kabi yangi metodlarni qo`llash maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism

Fanning nazariy (leksiya) mashg`ulotlari mazmuni

“O`qituvchi nutqi madaniyati” o`quv fani sifatida

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fani, uning mundariyasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati. O`qituvchi nutq madaniyati fani o`zbek tilshunosligining o`ziga xos amaliy sohasi ekanligi. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyangan holda to`g`ri va ta`sirchan nutq tuzish yo`llarini o`rgatishi. Nutq madaniyati – amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan. Tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida chiroyli nutq tuzish qonuniyatlari, sirlari, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo`lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan baxs yuritadi.

O`qituvchining kommunikativ qobiliyati

Muloqot orqali ta`sir etish. Muloqotga kirishish. O`qituvchi tomonidan muloqotga kirishish jarayonida qo`llaniladigan ta`sir uslublari. O`qituvchining o`quvchilar bilan muloqotda ularni tushuna olishi, bu jarayonda qo`llanadigan psixologik ta`sir ko`rsatish usullari, ishtirak va ma`qullash.

Nutqning madaniyligini ta'minlashda to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, joyanlik kabi kommunikativ sifatlarning ahamiyati. Nutqning to'g'riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori ekanligi, adabiy me'yor va uning ahamiyati. Adabiy me'yorning barqaror hodisa ekanligi. O'qituvchi nutqining to'g'riligi nutq madaniyati haqidagi ta'limotning bosh masalasidir. O'zbek adabiy tili me'yorlari: leksik me'yorlar, talaffuz me'yorlar, so'z yasash me'yorlari, morfologik me'yorlar, sintaktik me'yorlar, uslubiy me'yorlar.

Muloqot nutqning aniqligini ta'minlovchi vosita sifatida

Muloqot va uning turlari. Muloqotni pedagogik hamkorlik vositasi sifatida talqin qilish. Kasbiy sohadagi muloqot. O'qituvchi nutqida aniqlik va muloqot. Fikrning aniq va ravshanligi. Nutqiy ifoda va fikr. Nutq va voqelik o'rtasidagi munosabat. O'qituvchi nutqining aniqligi va so'z tanlash. So'zning leksik ma'nosi va nutq. O'qituvchi nutqida sinonimlarning ahamiyati. Nutq tuzishda polisemantik, shakldosh so'zlar, tarixiy va arxaik so'zlarning ahamiyati.

O'qituvchi nutqning mantiqiyliigi

Mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to'g'ri va to'liq anglanishi uchun zaruriy bo'lgan sifatlardan biri ekanligi, mantiqiylikning, nutqning to'g'riligi va aniqligiga aloqadorligi. Mantiqiylikda so'zlar va gaplar o'rtasidagi semantik aloqalar. Narsa va tushuncha mantiqiyliigi. O'qituvchi mantiqiy nutq tuzishda ijodiy matnlardan foydalanishi. O'qituvchi o'z nutqida mantiqiylikka erishish uchun gapdagi so'zlar tartibiga e'tibor berish. Tildagi funksional sintaktik vositalar, jumlar va abzatslar o'rtasidagi bog'liqlik.

O'qituvchi nutqning sofligi

Nutqning sofligi nutq va jamiyat munosabatida namoyon bo'lishi. O'qituvchi nutqning sofligi insonning ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko'rsatkichdir. O'qituvchi nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar: shevaga xos so'z, ibora, grammatik shakllar, urg'u va talaffuz; o'rinsiz qo'llangan xorijiy so'zlar (varvarizmlar); jargon va argolar; dag'al va haqorat so'zlar (vulgarizmlar); parazit so'zlar; idoraviy so'z va iboralar; kanselarizmlar.

O'qituvchi nutqning jo'yaliligi, nutqning ifodaliligi

O'qituvchi nutqning jo'yaliligi nutqiy muloqotda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Jo'yalik til vositalarini shunday tanlash, ularni shunday aloqalantirish va bir-biri bilan bog'lashki, buning natijasida nutq konkret muloqotning maqsadi va sharoitlariga javob beradigan tarzda tarkib topadi. O'qituvchi nutqning yozma, og'zaki shakllarida joyanlikning o'rni. Jo'yalik va nutqiy vaziyat.

O'qituvchi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda ifodalilikning o'rni. Ifodalilik tinglovchi yoki o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifaddir. Nutqning ifodaliligining turli uslublarda o'ziga xos

ekanligi. Ifodalilikni yuzaga kelishida tovush qurilishi, soʻz xazinasini, marfologik shakllar, sintaktik birliklar, intonasiyaning oʻrinliliigi. Oʻqituvchi nutqining ifodaliligini tanlashda frazeologizmlarning, koʻchma maʼnoli soʻzlarning, tasviriy vositalarning ahamiyati.

Taʼlim jarayonida nutq texnikasi

Oʻqituvchi nutqiga qoʻyiladigan talablar. Nutq texnikasi oʻqituvchi nutqi madaniyatining muhim qismidir. Nutq texnikasi – ovoz sifati, toʻgʻri nafas olish, aniq tlafluz, aniq leksiya. Oʻqituvchining nutq texnikasi oʻquvchilar uchun etalon namuna ekanligi. Oʻqituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklar: nuqsonli ovoz, tovushni noaniq aytish, nafas olishdagi tartibsizliklar. Nutq texnikasini takomillashtirishda fonetika fonologiyaning ahamiyati. Ovoz ustida ishlash. Intonatsiya. Artikulyatsiya va diksiya haqida maʼlumot. Zamonaviy taʼlim jarayoni va nutq madaniyati.

Amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar

Amaliy mashgʻulotlarda talabalar turli nutq normalarini, nutqning barcha kommunikativ sifatlarini amalda qoʻllay olishni oʻrganadilar. Amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish boʻyicha kafedra professor-oʻqituvchilari tomonidan koʻrsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy maʼruza mavzulari boʻyicha olgan bilim va koʻnikmalarini maʼruza qilish va savol-javoblar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va oʻquv qoʻllanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular boʻyicha koʻrgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi. Amaliy mashgʻulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Adabiy meʼyor va badiiy nutq.
2. Sof nutqni shakllantirishda badiiy asarlarning oʻrni.
3. Oʻqituvchining nutqiy mahorati.
4. Oʻqituvchi nutqida uchraydigan nuqsonlar.
5. Nutq texnikasi. Mimika va jestlar. Ovoz va nafas.
6. Oʻqituvchi nutqidagi soʻz boyligi.
7. Ommaviy axborot vositalari va nutq madaniyati.
8. Mutaxassis pedagoglar nutqida uchraydigan yutuq va kamchiliklar.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va oʻquv qoʻllanmalar boʻyicha fan boblari va mavzularini oʻrganish;
- tarqatma materiallar boʻyicha maʼruzalar qismini oʻzlashtirish;
- avtomatlashtirilgan oʻrgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabani o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta'lim. Talabalarga mustaqil ish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. So'z qudratli va buyuk vosita.
2. Yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda nutq madaniyatining o'rni
3. O'qituvchi nutqining o'ziga xos xususiyatlari
4. Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi kerak. Nutq odobi.
5. Nutqiy etiketni o'rganish.
6. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy asarlarida notiqlik, milliy muomala madaniyati masalalari.
7. Badiiy asarda nutq madaniyati masalalari: Abdulla Qahhorning so'z tanlash mahorati
8. Nutq madaniyatini egallash yo'llari. Ommaviy axborot vositalarining til xususiyatlari.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti quyidagilardan iborat:

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)
6. www.nuqf.intal.uz

Didaktik vositalar

Didaktik vositalar ro'yxati beriladi.

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).
- **video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
- **kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

6. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Mahmudov N. O`qituvchi nutqi madaniyati. Darslik. O`zbekiston milliy kutubxonasi. T: 2009. 188 b.
2. Rasulov R., Husanov N., Mo`yudinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san`ati T: "IQTISOD-MOLIYA", 2006. 132 b.
3. Ona tili – davlat tili. T: "Adolat", 2004. 80 b.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud ahloq. T: "O`qituvchi", 1992. 160 b.
5. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. T: "Navro`z", 1997. 95
6. Begmatov E. O`zbek adabiy tilining mustaqillik davri rivojiga doir // "O`zbek tili va adabiyoti", 2006. №4, 3-9 betlar.
7. Jamolxonov H.A. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T: "Talqin", 2005. 272 b.
8. Jumaxo`ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. T: "Sharq", 1998. 160 b.
9. Yo`ldoshev M. Cho`lpon so`zining sirlari. T: "Ma`naviyat", 2002. 80 b.
10. Kaykovus. Qobusnoma. To`ldirilgan 2-nashri. T: "Istiqlol", 1994. 173 b.
11. Mahmudov N. Ma`rifat manzillari. T: "Ma`naviyat", 1999. 64 b.
12. Qo`ng`urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T: "O`qituvchi", 1992. 160 b.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 14-tom. T: G`G`ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. 272 b.
2. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. T: "Ma`naviyat", 2003. 112 b.
3. Ta`lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari (O`zbek tili 5-doimiy anjumani tezislari). T: "Sharq", 1999. 256 b.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV-jild. T: «Ma`naviyat», 2006. 336 b.
5. Abdurahmonov X. Mahmudov N. So`z estetikasi. T.: Fan 1981, 38 b.
6. Nazarov K. Usmonov S. Tohirov O`. Yuristning nutq madaniyati. T.: 2003.
7. Ortiqov A., Nutq madaniyati va notiqlik san`ati. T.: 2002.
8. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T.: O`qituvchi, 2003.
9. Husanov N. Nutq madaniyati fanidan ma`ruza matnlari. T.: TMI, 2001, 106 b
10. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. T.: «Adolat», 2005. 90 b.
11. Mirtojdiyev M. Mahmudov N. Til va madaniyati T.: O`zbekiston, 1992.
12. Rustamov A. So`z xususida so`z. T.: «Yosh gvardiya», 1987, 160 b.
13. Meliboyev A. Nutq va mahorat. – T.: «O`zbekiston adabiyoti va san`ati». 2005-y, 21-oktabr.
14. Internet saytlari
 - www.tfi.uz
 - www.thinsan.com
 - www.dersimiz.com
 - www.altinmiras.com
 - www.ziyonet.uz